

“TEMUR TUZUKLARI” INGLIZCHA TARJIMASIDA DINIY UNVONLAR VA IJTIMOIIY MAQOM BIRLIKLARINING BERILISHI

Abdullayev Shaxzod Fazliddin o'g'li
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi
abdullaev.sh.f@gmail.com; +998971557767

Annotatsiya. Mazkur tezisda “Temur Tuzuklari” asarining inglizcha tarjimasida diniy unvonlar va ijtimoiy maqomni ifodalovchi birliklarning qayta berilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sayyid, shayx, ulama, qozi, mufti, pir, darvesh, xoja, amir, bek, xon, xoqon va vazir kabi birliklarning tarixiy, diniy, siyosiy va ijtimoiy mazmuni ochib beriladi. Ushbu birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda transliteratsiya, tarixiy ekvivalent, tavsifiy tarjima, kontekstual almashtirish va izohlash strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tahlil natijasida diniy unvon va ijtimoiy maqom birliklarini umumiy ma'noli inglizcha so'zlar bilan almashtirish ularning institutsional, nasabiy va madaniy mazmunining qisqarishiga olib kelishi aniqlanadi. Shu sababli xalqaro tarixshunoslikda barqarorlashgan khan, khagan, vizier, dervish, mufti kabi shakllardan foydalanish, milliy xususiyatga ega birliklarni esa transliteratsiya va qisqa izoh asosida berish maqsadga muvofiqligi asoslanadi. Mazkur yondashuv tarjimada tarixiy aniqlik, terminologik izchillik va madaniy ekvivalentlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: “Temur Tuzuklari”, inglizcha tarjima, diniy unvon, ijtimoiy maqom, tarixiy birlik, transliteratsiya, tavsifiy tarjima, kontekstual ekvivalent, tarixiy ekvivalentlik, madaniy xususiyat, terminologik izchillik, standartlashtirish.

KIRISH. “Temur Tuzuklari” matnida diniy unvonlar va ijtimoiy maqomni bildiruvchi birliklar asarning tarixiy, siyosiy va madaniy mazmunini shakllantiruvchi muhim leksik qatlamlardan biridir. Bunday birliklar faqat shaxsning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatmaydi, balki o'sha davrga xos diniy-huquqiy tizim, ijtimoiy iyerarxiya, siyosiy hokimiyat va ma'naviy nufuzni ham ifodalaydi. Shu sababli ularni ingliz tiliga tarjima qilishda oddiy lug'aviy muqobil bilan cheklanish ko'pincha birlikning tarixiy va pragmatik mazmunini to'liq yetkazmaydi. Tarixiy matnlarda uchraydigan diniy unvonlar va ijtimoiy maqom birliklarini tarjima qilish masalasi tarjimashunoslikning lingvistik, funksional, madaniy va pragmatik yo'nalishlari doirasida tadqiq etiladi.

S.Basnett tarjimini tillar o'rtasidagi oddiy leksik almashtirish emas, balki madaniyatlararo muloqot jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tarixiy va madaniy jihatdan xoslangan birliklar tarjima qilinayotganda manba madaniyatiga tegishli ma'no qatlamlari ham hisobga olinishi lozim. Mazkur yondashuv “Temur Tuzuklari”dagi sayyid, shayx, pir, qozi, mufti, amir, bek, xon va xoqon kabi birliklarni

umumiy inglizcha soʻzlar bilan almashtirish yetarli emasligini koʻrsatadi. Chunki bunday birliklarning har biri muayyan tarixiy institut yoki ijtimoiy maqomni ifodalaydi.

A.V. Fedorov tarixiy va milliy xoslangan birliklarni tarjima qilishda semantik moslik bilan bir qatorda, ularning funksional va uslubiy vazifasini ham saqlash zarurligini taʼkidlaydi. Uning yondashuviga koʻra, tarixiy unvonning tarjimasi faqat lugʻaviy maʼnoni emas, balki uning matndagi ijtimoiy va uslubiy yukini ham yetkazishi kerak. Masalan, vazir birligini oddiy minister shaklida berish uning umumiy maʼmuriy vazifasini ifodalashi mumkin, biroq Sharq saroy boshqaruviga xos tarixiy maqomini toʻliq aks ettirmaydi. Shu sababli vizier shakli funksional va tarixiy jihatdan aniqroq hisoblanadi.

J. Xaus tarjima sifatini manba va tarjima matnlarining funksional-pragmatik mosligi asosida baholaydi. Olimning fikricha, tarjima matni asliyatning kommunikativ vazifasini qabul qiluvchi til va madaniyat doirasida qayta amalga oshirishi kerak. Ushbu nazariya diniy unvon va ijtimoiy maqom birliklarini tarjima qilishda ayniqsa muhimdir. Agar qozi birligi faqat judge tarzida berilsa, uning shariat huquqiga asoslangan sudlov vakili ekanligi yoʻqoladi. Qadi yoki Islamic judge shakli esa mazkur birlikning funksional-pragmatik mazmunini aniqroq ifodalaydi.

P.Nyumark madaniy birliklar va atoqli nomlarni tarjima qilishda koʻchirib oʻtkazish, naturalizatsiya, funksional ekvivalentlik kabi strategiyalarni taklif etadi. Uning yondashuviga koʻra, tarjima tilida tarixiy jihatdan tan olingan shakl mavjud boʻlsa, yangi variant yaratish oʻrniga mavjud standart shakldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, xon uchun khan, xoqon uchun khagan, vazir uchun vizier, darvesh uchun dervish shakllari ingliz tilidagi tarixiy adabiyotlarda barqarorlashgan birliklardir. Toʻliq ekvivalent mavjud boʻlmagan sayyid yoki pir kabi birliklarda esa transliteratsiya va tavsifiy izohni birlashtirish zarur.

K.Nord funksionalistik tarjima nazariyasida tarjima maqsadi va qabul qiluvchi auditoriyaning ehtiyojini strategiya tanlashning asosiy mezon sifatida belgilaydi. Uning fikricha, tarjimon tarixiy birlikni qaysi auditoriya uchun va qanday maqsadda tarjima qilayotganini hisobga olishi kerak. Ilmiy nashrda sayyid, mufti, qadi, bek kabi birliklarni transliteratsiya qilib, izoh bilan berish maqsadga muvofiq boʻlsa, ommabop tarjimada ularning tavsifiy ekvivalentlaridan foydalanish mumkin. Bu tarjimada aniqlik va tushunarlilik oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlaydi.

L.Venuti tarjimada mahalliyashtirish va yotlashtirish strategiyalarini farqlaydi. Yotlashtirish manba madaniyatiga xos birliklarni saqlashga, mahalliyashtirish esa ularni tarjima oʻquvchisiga tanish shaklda berishga qaratiladi. “Temur Tuzuklari”dagi diniy unvon va maqom birliklarini tarjima qilishda bu ikki tamoyil oʻrtasidagi muvozanat muhim. Masalan, sayyid, pir, bek kabi birliklarni saqlash tarixiy koloritni kuchaytiradi, biroq izoh berilmasa, ingliz oʻquvchisi ularning mazmunini anglamasligi

mumkin. Shu sababli transliteratsiya va qisqa tavsifni birlashtirish eng maqbul yechim hisoblanadi.

S.Vlaxov va S.Florin milliy va tarixiy xoslangan birliklarni realiyalar sifatida talqin qilib, ularni tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, tavsifiy tarjima va funksional analoglardan foydalanishni tavsiya etadi. Olimlarning fikricha, realiyani to'liq mahalliyashtirish uning milliy-madaniy xususiyatini kamaytiradi, faqat shakliy ko'chirish esa tushunarsizlik tug'dirishi mumkin. Mazkur yondashuv diniy unvonlar va ijtimoiy maqom birliklarini kombinatsion strategiya asosida tarjima qilish zarurligini tasdiqlaydi. Masalan, sayyid shaklini saqlab, uni "the title of a descendant of the Prophet" tarzida izohlash yoki qozini qadi, an Islamic judge shaklida berish ham madaniy xususiyatni, ham tushunarlikni ta'minlaydi.

Asarda uchraydigan sayyid, shayx, ulama, qozı, mufti, darvesh, xoja, pir, amir, bek, xon, xoqon, vazir kabi birliklar turli diniy va ijtimoiy vazifalarni anglatadi. Masalan, sayyid birligi Muhammad payg'ambar avlodiga mansublikni bildiruvchi diniy-nasabiy maqom hisoblanadi. Uni ingliz tiliga faqat lord yoki nobleman tarzida tarjima qilish yetarli emas, chunki bunday variantlarda nasabiy va diniy legitimlik semasi yo'qoladi. Shu bois sayyid shaklini transliteratsiya asosida saqlash va zarur holatda "a descendant of the Prophet Muhammad" tarzidagi qisqa izoh bilan berish maqsadga muvofiqdir.

Shayx birligi ham ko'p ma'noli tarixiy-diniy birlik sanaladi. U ayrim kontekstlarda diniy ulamo, tasavvufiy rahbar, qabila oqsoqoli yoki obro'li shaxsni anglatishi mumkin. Shuning uchun uni har doim bir xil inglizcha birlik bilan ifodalash to'g'ri emas. Diniy kontekstda sheikh yoki religious leader, tasavvufiy muhitda Sufi master, ijtimoiy kontekstda esa elder kabi variantlardan foydalanish mumkin. Bunda tarjima ekvivalenti kontekstga muvofiq tanlanishi lozim.

Ulama birligi islomiy ilmlarni egallagan diniy olimlar guruhini anglatadi. Ingliz tilida ushbu birlik religious scholars yoki Islamic scholars shaklida berilishi mumkin. Biroq tarixiy-madaniy xususiyatni saqlash zarur bo'lgan hollarda ulama shaklini transliteratsiya asosida berish va birinchi qo'llanishda qisqa izoh kiritish samaraliroq hisoblanadi. Chunki scholars so'zi umumiy ilm ahli ma'nosini bildiradi, ulama esa islomiy diniy-huquqiy bilimga ega bo'lgan maxsus ijtimoiy qatlamni ifodalaydi.

Qozı va mufti birliklari diniy-huquqiy tizim bilan bevosita bog'liq. Qozı shariat asosida hukm chiqaruvchi sudya bo'lib, uni judge tarzida tarjima qilish umumiy ma'noni bersa-da, uning diniy-huquqiy xususiyatini to'liq ochmaydi. Shu sababli Islamic judge yoki qadi shakli aniqroq hisoblanadi. Mufti esa diniy-huquqiy masalalar yuzasidan fatvo beruvchi shaxsni anglatadi. Mazkur birlik uchun ingliz tilida mufti shakli saqlanib, zarur holatda an Islamic legal scholar authorized to issue fatwas tarzidagi izoh bilan berilishi mumkin.

Tasavvufiy mazmunga ega pir, darvesh va xoja kabi birliklar ham murakkab tarjima masalasini yuzaga keltiradi. Pir tasavvufdagi ruhiy ustozni anglatadi va uni oddiy teacher yoki old man tarzida tarjima qilish semantik yo'qotishga olib keladi. Bunday kontekstda spiritual master yoki Sufi mentor variantlari mazmunga yaqinroqdir. Darvesh birligi esa tasavvuf yo'lini tutgan, dunyoviy ne'matlardan voz kechgan shaxsni anglatadi. Ingliz tilida dervish shakli tarixiy va madaniy jihatdan barqarorlashgan variant sifatida qo'llanishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy maqomni bildiruvchi amir, bek, xon, xoqon va vazir birliklari ham o'ziga xos tarixiy iyerarxiyani ifodalaydi. Amir ayrim holatlarda harbiy qo'mondon, viloyat boshlig'i yoki hukmdor maqomini anglatadi. Shu bois uni kontekstga qarab commander, ruler, governor yoki transliteratsiya asosidagi amir shaklida berish mumkin. Bek esa mahalliy hukmdor, zodagon yoki ma'muriy boshliqni ifodalaydi. Uni har doim lord deb tarjima qilish maqomning tarixiy va hududiy xususiyatini kamaytiradi. Shu sababli beg/bek shaklini saqlash va izohlash ko'proq ilmiy aniqlik beradi.

Xon va xoqon birliklari bir-biriga yaqin ko'rinsa-da, ularning siyosiy maqomi turlicha. Xon muayyan davlat yoki qabila hukmdorini anglatasa, xoqon undan yuqori, imperatorlik darajasidagi oliy hukmdor maqomini bildirishi mumkin. U. Deyvi tarjimasida xoqonning khaukaun shaklida berilishi tarixiy koloritni saqlashga qaratilgan bo'lsa-da, grafik-fonetik jihatdan standartlashmagan. Ingliz tarixiy adabiyotida khagan shakli ko'proq tanilgan va ilmiy jihatdan barqaror hisoblanadi. Shu bois mazkur birlikni khagan tarzida berish tarixiy maqomni aniqroq ifodalash hamda o'quvchi uchun tanib olinuvchanlikni oshirish imkonini beradi.

Vazir birligi davlat boshqaruvidagi yuqori lavozimni bildiradi. Ingliz tilidagi minister varianti uning umumiy ma'muriy vazifasini ifodalasa-da, tarixiy Sharq davlatlariga xos siyosiy maqomini to'liq aks ettirmaydi. Shuning uchun tarixiy matnda vizier shaklidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur birlik ingliz tarixiy adabiyotida shakllangan bo'lib, Sharq saroy boshqaruvidagi yuqori martabali maslahatchi yoki amaldorni anglatadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, diniy unvonlar va ijtimoiy maqom birliklarini tarjima qilishda yagona strategiyadan foydalanish mumkin emas. Bunday birliklarning bir qismi ingliz tilidagi tarixiy va ilmiy adabiyotlarda barqarorlashgan shaklga ega bo'lsa, ayrimlari transliteratsiya, tavsifiy tarjima yoki kontekstual ekvivalent orqali berilishi kerak. Tarjima strategiyasini tanlashda birlikning diniy, siyosiy, nasabiy yoki ijtimoiy semasi aniqlanishi zarur.

1-jadval

Diniy unvonlar va ijtimoiy maqom birliklarining tarjima xususiyatlari

Manba tilidagi birlik	Inglizcha tavsiya etiladigan shakl	Asosiy ma'nosi	Tavsiya etiladigan strategiya
sayyid	sayyid	payg'ambar avlodiga mansub shaxs	transliteratsiya va izoh
shayx	sheikh / religious leader / Sufi master	diniy yoki tasavvufiy rahbar	kontekstual ekvivalent
ulama	ulama / Islamic scholars	islomiy olimlar guruhi	transliteratsiya va tavsif
qozi	qadi / Islamic judge	shariat sudyasi	standart tarixiy shakl
mufti	mufti	fatvo beruvchi diniy-huquqiy olim	transliteratsiya va izoh
pir	spiritual master / Sufi mentor	ruhiy ustoz	tavsifiy ekvivalent
darvesh	dervish	tasavvuf vakili	xalqaro tan olingan shakl
amir	amir / commander / ruler	harbiy yoki siyosiy rahbar	kontekstual tarjima
bek	bek / beg	mahalliy zodagon yoki boshliq	transliteratsiya va izoh
xon	khan	hukmdor	standart tarixiy shakl
xoqon	khagan	oliy hukmdor	standartlashtirilgan ekvivalent
vazir	vizier	yuqori davlat amaldori	tarixiy ekvivalent

Mazkur birliklarni haddan tashqari umumlashtirish tarixiy maqomning pasayishiga olib keladi. Masalan, qozini oddiy judge, shayxni leader, piri teacher yoki bekni official tarzida berish ularning institutsional va madaniy xususiyatini yo'qotadi. Aksincha, faqat transliteratsiya qilish ham ingliz tilidagi o'quvchi uchun tushunarsizlik tug'dirishi mumkin. Shu sababli eng samarali usul sifatida transliteratsiya va qisqa izohni birlashtiruvchi kombinatsion strategiyani qo'llash mumkin.

Umuman olganda, "Temur Tuzuklari" inglizcha tarjimasida diniy unvonlar va ijtimoiy maqom birliklarini qayta ifodalashda tarixiy aniqlik, funksional moslik, terminologik izchillik va madaniy xususiyatni saqlash asosiy mezon bo'lishi lozim. Xalqaro tarixshunoslikda shakllangan khan, khagan, vizier, dervish, mufti kabi variantlardan foydalanish, milliy xoslangan sayyid, bek, pir kabi birliklarni esa izoh bilan berish tarixiy-referensial ekvivalentlikni ta'minlaydi.

XULOSA

“Temur Tuzuklari” inglizcha tarjimasida diniy unvonlar va ijtimoiy maqom birliklarini qayta ifodalash murakkab tarjimaviy jarayon ekanligi olib borilgan tahlillar asosida aniqlandi. Mazkur birliklar faqat shaxsning diniy yoki ijtimoiy mavqeyini ko'rsatmaydi, balki o'sha davrga xos boshqaruv tizimi, diniy-huquqiy munosabatlar, siyosiy iyerarxiya va madaniy dunyoqarashni ham aks ettiradi. Shu sababli ularni oddiy lug'aviy ekvivalentlar bilan berish ko'p hollarda tarixiy va madaniy mazmunning qisqarishiga olib keladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, sayyid, shayx, ulama, qozi, mufti, pir va darvesh kabi diniy birliklarning har biri o'ziga xos institutsional va diniy mazmunga ega. Masalan, sayyid birligi nasabiy va diniy legitimlikni, qozi shariat asosidagi sudlov faoliyatini, mufti esa diniy-huquqiy masalalar bo'yicha fatvo berish vakolatini ifodalaydi. Mazkur birliklarni nobleman, judge yoki scholar kabi umumiy ma'noli so'zlar bilan tarjima qilish ularning tarixiy va konfessional xususiyatlarini to'liq yetkazmaydi.

Ijtimoiy-siyosiy maqomni ifodalovchi amir, bek, xon, xoqon va vazir birliklari ham o'zaro farqli daraja va vazifalarni anglatadi. Amir harbiy yoki siyosiy rahbari, bek mahalliy boshliq yoki zodagonni, xon hukmdorni, xoqon esa undan yuqori siyosiy maqomdagi oliy hukmdorni bildiradi. Shu bois ushbu birliklarni bir xil inglizcha so'z bilan almashtirish tarixiy iyerarxiyaning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, xoqon birligini khaukaun kabi standartlashmagan shaklda berish o'rniga xalqaro tarixshunoslikda tan olingan khagan shaklidan foydalanish ilmiy jihatdan aniqroqdir.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, diniy unvonlar va ijtimoiy maqom birliklarini tarjima qilishda yagona usulga tayanish yetarli emas. Xalqaro ilmiy va tarixiy adabiyotlarda barqarorlashgan birliklarda khan, khagan, vizier, dervish, mufti kabi shakllardan foydalanish lozim. Ingliz tilida to'liq ekvivalenti mavjud bo'lmagan sayyid, pir, bek kabi birliklarni esa transliteratsiya orqali saqlab, birinchi qo'llanishda qisqa izoh bilan berish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tarjima strategiyasi birlikning matndagi vazifasi va kontekstiga qarab tanlanishi kerak. Masalan, shayx birligi diniy rahbar, tasavvufiy ustoz yoki qabila oqsoqoli ma'nosida kelishi mumkin. Shu sababli uni barcha holatda bir xil tarjima qilish emas, balki kontekstga muvofiq sheikh, religious leader, Sufi master yoki elder shakllaridan foydalanish talab etiladi.

Umuman olganda, “Temur Tuzuklari” inglizcha tarjimasida diniy unvonlar va ijtimoiy maqom birliklarini qayta ifodalashda tarixiy aniqlik, funksional moslik, terminologik izchillik va milliy-madaniy xususiyatni saqlash asosiy mezon bo'lishi lozim. Transliteratsiya, standart tarixiy ekvivalent va izohli tarjimani uyg'unlashtiruvchi kombinatsion strategiya mazkur birliklarning mazmunini to'liqroq yetkazish imkonini beradi. Bunday yondashuv tarjimada tarixiy autentiklikni saqlash,

o'quvchi uchun tushunarlikni ta'minlash va asarning madaniy qimmatini to'g'ri ifodalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bassnett, S. Translation Studies. 4th ed. London and New York: Routledge, 2014.
2. Davy, J. The Institutes, Political and Military, Written Originally in the Mogul Language by the Great Timour. Oxford: Clarendon Press, 1783.
3. Fedorov, A.V. Osnovy obshchey teorii perevoda: lingvisticheskiye problemy. Moskva: Vysshaya shkola, 1983.
4. House, J. Translation Quality Assessment: Past and Present. London and New York: Routledge, 2015.
5. Newmark, P. Approaches to Translation. Oxford: Pergamon Press, 1981.
6. Newmark, P. A Textbook of Translation. New York and London: Prentice Hall, 1988.
7. Nord, Ch. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. Manchester: St. Jerome Publishing, 1997.
8. Nord, Ch. Text Analysis in Translation: Theory, Methodology and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis. Amsterdam and New York: Rodopi, 2005.
9. Venuti, L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. 2nd ed. London and New York: Routledge, 2008.
10. Влахов, С., Флорин, С. Непереводимое в переводе. Москва: Международные отношения, 1980.